


JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.


Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


3



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2021- yil yanvar - dekabr oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni



(yanvar- dekabr oylarida, birlikda)




Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **11,2** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish
 ■ O‘rmon xo‘jaligi
 ■ Baliqchilik xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,2 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



130

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

3 464

Ishlab chiqarish sanoati

15

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

45

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 3 654 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,2 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 105,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,8 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 6,5 % ga kamayish (jami sanoatdagi ulushi 3,6 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 107,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) o'sishidir va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 118,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,2 %) kuzatildi.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **0,5** foizga ko'paydi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




0,5 foizga ko'paydi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




5,9 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




14,3 foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



50,0 foizga oshdi



Xususiy korxonalar




17,5 foizga kamaydi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 1 809 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 367 taga yoki 25,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 661 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 304 taga yoki 22,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-dekar oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 526 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 148 taga yoki 22,0 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 13 961 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 101 taga yoki 17,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 311 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 900 taga yoki 16,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 389 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 497 taga yoki 17,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.





Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 221 tani tashkil etib, ulardan 213 tasi yoki 96,4 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 13 taga yoki 6,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyatida 24 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



99

yashash bo'yicha xizmatlar



1 299

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 398 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,2 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 10,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,9 %), yashash bo'yicha xizmatlarning - 4,2 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,1 %) o'sishidir.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

13



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	82	121	181	202	213
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6	20	29	34	37
Sanoat	63	70	102	111	118
Qurilish	2	4	8	8	12
Savdo	4	16	22	29	24
Tashish va saqlash	3	3	5	4	6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar		1	5	4	2
Axborot va aloqa	1	2	3	3	3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish		-	-	1	2
Boshqa turlar	3	5	7	8	9

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

■ O'sish sur'ati ■ 2022- y. ■ 2021- y.



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

15

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Jizzax viloyati	213	135	78
Jizzax shahri	67	43	24
tumanlar:			
Arnasoy	8	5	3
Baxmal	10	7	3
G'allaorol	18	11	7
Sharof Rashidov	16	11	5
Do'stlik	8	5	3
Zomin	16	8	8
Zarbdor	4	3	1
Zafarobod	10	3	7
Mirzacho'l	5	2	3
Paxtakor	8	7	1
Forish	30	23	7
Yangiobod	13	7	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahrida 67 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 31,5 %), Forish tumanida 30 ta (14,1 %), G'allaorol tumanida 18 ta (8,5 %), Sharof Rashidov tumanida 16 ta (7,5 %), Zomin tumanida 16 ta (7,5 %), Yangiobod tumanida 13 ta (6,1 %) hamda Zafarobod va Baxmal tumanlarida 10 tadan (4,7 %) ni tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Jizzax shahri (28,6 %), Sharof Rashidov (14,7 %), G'allaorol (8,7 %), Zomin (8,0 %), Forish (7,0 %), Baxmal (6,3 %), Zarbdor (5,0 %), Paxtakor (4,6 %), Do'stlik (4,3 %), Mirzacho'l (3,9 %), Arnasoy (3,5 %), Zafarobod (3,0 %) va Yangiobod (2,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar- dekabr oylarida, birlikda)


2021- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Jizzax shahrida (25,6 %), Sharof Rashidov (13,2 %), G'allaorol (10,2 %), Zomin (8,6 %), Baxmal (7,9 %), Forish (7,6 %), Zarbdor (5,2 %), Paxtakor (4,9 %), Do'stlik (4,6 %), Arnasoy (3,8 %), Mirzacho'l (3,8 %), Zafarobod (2,4 %) va Yangiobod (2,3 %) tumanlari ulushiga ega.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

17




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Jizzax shahrida (33,7 %), Sharof Rashidov (18,1 %), Zomin (7,0 %), Baxmal (6,6 %), G'allaorol (6,1 %), Forish (6,1 %), Zarbdor (4,7 %), Do'stlik (4,4 %), Arnasoy (3,4 %), Paxtakor (3,2 %), Mirzacho'l (3,2 %), Zafarobod (2,0 %) va Yangiobod (1,6 %) tumanlari hissasiga tegishli.


Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi (2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017- 2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2021- yilning yanvar - dekabr oylarida, birlikda)



2021- yil yanvar-dekabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Jizzax shahrida (28,3 %), G'allaorol (18,1 %), Paxtakor (14,8 %), Sharof Rashidov (14,6 %), Zarbdor (6,5 %), Zomin (5,7 %), Baxmal (3,2 %), Do'stlik (3,0 %), Mirzacho'l (2,9 %), Yangiobod (1,0 %), Arnasoy (0,7 %), Zafarobod (0,8 %) va Forish (0,4 %) tumanlari ulushni qayd etadi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yil yanvar - dekabr oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot - ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Jizzax viloyati statistika boshqarmasining www.jizzaxstat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 72 221-51-24